JADID ZIYOLILARI IJODIDA TIL MUAMMOSI

Pardayev Qo‘ldosh Uzoqovich
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori. professor.
E-mail: kuldashparda@mail.ru.

.

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadid ma’rifatparvarlarining davriy matbuot sahifalarida ilgari surgan til masalasiga oid tanqidiy qarashlari tahlil etiladi. Xususan, XX asr boshlarida badiiy asarlar tiliga doir kechgan ilmiy-adabiy bahs-munozaralar “Al-Isloh”, “Oyna”, “Sadoi Farg‘ona” va “Sadoi Turkiston” kabi nashrlar materiallari asosida o‘rganilib, mazkur masalaning davr adabiy jarayonidagi o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, jadid matbuotida adabiy til, badiiy asar tili va adabiy tanqid masalalarining qo‘yilishi hamda ularning Turkiston adabiy-madaniy muhitidagi aks sadosi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: maqola, davr, adabiy til, matbuot, jadidchilik, adabiy tanqid, adabiyot, XX asr, badiiy asar, Turkiston.

Annotation: The article deals with critical articles by Jadid educators on the language issue in the periodicals. In particular, the debates on the language of works of art of the early twentieth century in the publications “Al-Islah”, “Oyna”, “Sadoi Fergana”, “Sadoi Turkestan” were studied and clarified.

Key words: article, period, literary language, press, jadidism, literary criticism, literature, century, work, Turkestan.

XX asr tongida millat ziyolilari o‘zbek adabiy tilining qanday rivojlanmog‘i kerakligi, buning uchun qanday yo‘llardan borish lozimligini keng muhokama qilgan edilar. Bu borada eng to‘g‘ri yo‘l sifatida xalq jonli tili imkoniyatlaridan foydalanish, o‘zbek tilini boshqa tillar ta’siriga tushib qolishdan muhofaza qilish masalasini kun tartibiga qo‘ydi.

Jadidlar maktab va madrasalar darsliklari tili va matbuotda chop etilayotgan maqolalarning sof o‘zbek tilida bo‘lishi uchun kurashdi. Til masalasiga oid bunday tanqidiy maqolalar vaqtli matbuotda muntazam e’lon qilib borildi. Jumladan, “Al-Isloh”, “Oyna”, “Sadoi Farg‘ona”, “Sadoi Turkiston” nashrlari shular jumlasidandir.

Ibrohim Tohiriyning “Al-Isloh”da chop qilingan “Matbuot va isloh” sarlavhali maqolasi bu jihatdan harakterlidir. Muallif Turkistonda nashr qilinayotgan asarlar va gazeta, jurnallar tili haqida so‘z yuritadi. U matbuot xususida fikr yuritib, uni axloqiy –ma’naviy ozuqa beruvchi omil sifatida talqin etadi: “Bir xalqning matbuoti o‘shal

xalqning ko‘nglida yoshiring‘on, ko‘kragida saqlangan tilaklarini, orzularini eng ochiq suratda ko‘rsatadurg‘on oynasidur. Bir xalqning matbuoti o‘shal xalqning o‘tganini, kelajag‘ini va ando o‘lg‘on va o‘lajaq umidlarini, farzlarini, yo‘llarini, qayg‘ularini so‘zlaydurg‘on bir tildur...” [“Al-Isloh”, 1915: 5-son: 141]. Maqolaning keyingi satrlarida tojik tilining o‘zbek tiliga ta’siri masalasiga to‘xtalib, “Sadoi Turkiston” gazetasining nomlanishi va uning muharriri Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayevning yurist bo‘la turib tojik tilidan so‘z olib gazetaga nom qo‘yishini tanqid qilib bunday yozadi: “Har bir g‘azetaning buyuk bir vazifasi milliy tilg‘a, “imlo”g‘a ahamiyat berub va shularni isloh qilishdur... gazetaning boshinda yurist Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev kishilarini muhofaza edar ko‘zi ochiq huquq olimi tursa-da, bu g‘azeta muhtaram milliy tilimizning huquqina nedandur masohila etmish, ehtiromsizlik ko‘starmishdur. O‘z tilimizda bor bir so‘zni tashlab ikkinchi tildan so‘z olib g‘azetag‘a ism bersa ham, oz – cho‘q fasohati o‘lur esa-da, muqaddas milliy tilimizg‘a albatta xiyonat o‘lur, jinoyat o‘lur.” [“Al-Isloh”, 1915: 5-son: 145].

Millat ertasini o‘ylab jon kuydirayotgan ma’rifatparvarlarning barchasi jaholatdan chiqish yo‘llarini izladi va bunday nuqsonlarni bartaraf etishga harakat qildi. Ibrohim Tohiriy Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush”, Nusratulla Qudratulla va Hoji Muin hammuallifligida yozilgan “To‘y” dramalarining til xususiyatlariga ahamiyat qaratib, keskin tanqid qiladi. Hatto maktab bolalarining insho va imlolariga mengzaydi. “... “Padarkush”, “To‘y” risolachalarina qarangiz”, – deb yozadi muallif. – “Turkistonlilarning o‘z shevalarina yozub nashr etg‘on asarlarinda til jihati ila durustlik va poklik yo‘qdir...” [“Al-Isloh”, 1915: 6-son: 178].

To‘g‘ri, bu asarlar o‘z davrida keng muhokama qilindi. Hatto “To‘y” dramasining mualliflaridan Hoji Muin bu kamchiliklarni tan olib, “Tanbehga tashakkur” sarlavhasi bilan iqrornoma tarzida maqola yozdi [“Oyna”, 1915: 7-son:157]. “To‘y” p’esasi o‘zbek dramaturgiyasi tarixida “Padarkush”dan keyin yaratilgan ikkinchi asar hisoblanadi. Asarning bosilib chiqishi adabiyot olamida katta quvonch bilan kutib olindi. “To‘y” chop etilganligi haqida qisqacha taqriz bergan “Oyna” asarni “ibratomuz” deb ta’riflaydi. [“Oyna”, 1914: 2-son:62] “Sadoi Turkiston” muallif sha’niga “yashasun bunday yosh fikrli zotlarimiz!” [“Sadoi Turkiston”, 1914: 55] deya xitob qildi. “...Til to‘g‘risidagi, ba’zi kamchiliklarni istisno qilganda, o‘z turmushimiz durustgina tasvir qilingan”, deb yozdi. “Al-Isloh” esa asar tilidagi nuqsonlarni tanqid qildi.

“Oyna” jurnalidagi keyingi taqrizda esa asarning til xususiyatlari ancha keng tahlil etilgan. [“Oyna”, 1914: 3-son:123] Muallif asarning lahja va imloda nuqsonlari borligini ta’kidlaydi. Masalan, “Eshak”, “Olufta”, “O‘sha valad” kabi so‘zlarni g‘ayriaxloqiylik deb hisoblaydi. Va asarning qayta nashrida bu so‘zlarni isloh qilish zaruratini ta’kidlaydi.

Ko‘rinib turibdiki, “Al-Isloh”dan boshqa nashrlarda ham “To‘y” dramasining kamchilik tomonlari ko‘rsatilgan. Biroq bu masalada ham muayyan munozaralar bo‘lib o‘tgan. Jumladan, Ibrohim Tohiriyning “Al-Isloh” jurnalidagi “Matbuot va isloh” nomli maqolasiga zid ravishda “Oyna” jurnalining 1915 yil 12- – sonida imzosiz “Lof” sarlavhali maqola chop etilgan. Maqolada Ibrohim Tohiriy fikrlariga zid mulohazalar uchraydi. Ibrohim Tohiriyga murojaat qilib, “Padarkush” asarining kamchilik jihatini ko‘rsating, degan savolni qo‘yadi noma’lum muallif. Shundan so‘ng esa “Padarkush” dramasida ayrim ruscha so‘zlar borligiga iqror bo‘lib, bu hol asarning qimmatini tushirmasligini ta’kidlaydi. Tojik tili aralashuvini esa ota – bobolar yozgan diniy va axloqiy kitoblar va madrasa tili ta’siri sifatida izohlaydi. Shu bilan birga “Al-Isloh” jurnalidagi Ibrohim Tohiriy maqolasiga ta’na qilib, bunday yozadi: “Burung‘i zamonda turk shevasini tojik tilidan tozalab, soddalig‘ina va poklig‘ina qaytaruv ul qadar qiyin bo‘lmasa kerak, Tohiriy bu ikki xatlik jumlasida o‘n uch kalima turkiy, to‘qqiz kalima arabiy – forsiy yozibdurki, o‘z so‘zig‘a o‘zi amal qilmaydur…” [“Oyna”, 1914: 2-son:98].

Til haqida “Oyna” jurnalida ham tanqidiy maqolalar chop etilgan. Jumladan, 1914-yil 11 – sonida imzosiz muallif tomonidan “Har millat o‘z tili ila faxr etar” nomli maqola bosilib chiqqan. Maqolada xuddi yuqoridagi fikrlarga mutanosib mulohazalar bor. Muallif taassuf qilib, boshqa millatlarni misol qilib ko‘rsatadi. Qaysi millat o‘z ona tilini tashlab boshqa begona tillardan so‘z oladi, deya noliydi. Misol qilib, ruscha kalimalarning xalq tilida tez – tez tilga olinuvi, hatto drama, vaqtli matbuot tilida ham ruscha, arabcha va tojikcha so‘zlarning aralashuvini tanqid qiladi: “Ushbu Turkistonimizda qaysi bir rus, yo qaysi bir arman o‘z tilini qo‘yib bir – birovi ila turkcha so‘ylaydur. Ammo bizning so‘zlashganimiz vaqtda har bir jumlada bir kalima rus so‘zi eshitilur. Masalan: “Mango bir oz pomogot qiling”, “oni muncha ishtaraf qildilar”, “Falon odamning do‘koni pechat qilindi”. Vaholanki bul so‘zlar hammasi musulmoncha ado bo‘lina olur. Masalan, pomogat – yordam, ishtaraf – jarima, pechat – muhr... Agarda til va adabiyotimizni muhofaza qilmay anga ajnabiy lug‘at va so‘zlarni qo‘shabersak bir oz zamonda til va millatimizni yo‘qoturmiz. Millatimizni yo‘qotganda diyonatimiz o‘z – o‘zi ila albatta yo‘qolur”.

Bu masalada Ashurali Zohiriyning “Sadoi Farg‘ona” gazetasi 1914 yil 13- aprel sonidagi “Ona tili” nomli maqolasi diqqatga loyiqdir. Maqola “Ona tili” deb nomlangan bo‘lsa – da, unda milliy adabiyotning o‘sha davrdagi ahvoli, milliy adabiy til haqida fikr yuritilgan. Muallif maqolaning boshidayoq adabiyotning keng ma’nosiga mana bunday ta’rif beradi: “Bir millatning o‘z tilidag‘i kitob, risola, g‘azeta, jurnal va boshqalarig‘a bir so‘z bilan “adabiyot” deyilur. Shuning uchun arabcha kitob va risolalarg‘a “adabiyoti arabiya”, turk, tatarcha bo‘lg‘onlarig‘a “turk adabiyoti”, “tatar adabiyoti” deyilur”.

Ashurali Zohiriyning bu fikrlariga qo‘shilmaslik mumkin emas, albatta. Maqolada muallif tili va adabiyoti bo‘lmagan yoki yetarlicha taraqqiy topmagan millatning boshqa xalqlar oldida hurmat va e’tibori ham yuqori bo‘lmaydi, degan fikrni ilgari suradi: “....adabiyoti bo‘lmag‘on, bo‘lsa ham borliq-yo‘qliq yoki ado bo‘lg‘on chirog‘dek o‘char-o‘chmas bo‘lsa, ul qavmning boshqalar oldida hurmat va e’tibori bo‘lmas va har nav’ hayoti ijtimoiya va madaniyadin bahra ololmaydi”. [“Sadoi Farg‘ona”, 1914: 13-aprel).

Ziyolilar, ulamolar umuman o‘qimishli yoshlar muqaddas ona tilimizni rivojlantirmoq u yoqda tursin, balki yo‘qotmoqlikka sabab bo‘layotganlarini ko‘rib afsuslanadi, o‘zbek tilini mensimay, fors, arab, tatar tillarida hujjat ishlarini yuritayotgan, bir–birlariga xatlar yozayotgan turkistonliklarni qattiq qoralaydi. U bunday yozadi: “Nechunki ulamolarimizdin biri biror yerg‘a xat yozsa yoki birovg‘a bergan narsasini xotira daftarig‘a yozsa, o‘z ona tilini qo‘yib fors tilida yozadurlar.... yosh o‘smurlarimiz bo‘lsalar o‘z yerliklaridan birini ziyofatg‘a chaqirub xat yozsalar ham usmonlicha yoki tatarcha yozadurlar, nega ona tilig‘a hurmat shumu?” [“Sadoi Farg‘ona”, 1914: 13-aprel).

Aslida, Ashurali Zohiriy o‘zga millat tillarini o‘rganishga qarshi bo‘lgan emas. Uning: “Durust, forscha, arabcha, o‘ruscha va boshqalarni ham bilaylik, bilaylikkina emas, yaxshi bilaylik, lekin o‘z ona tilimizni hammasidan ortiq va ziyoda bilaylik”, – degan fikrlari ham buni tasdiqlaydi. [“Sadoi Farg‘ona”, 1914: 13-aprel). Muallif ona tili taraqqiyoti masalasini xalq, jamiyat, davr bilan bog‘lab tekshirishga intiladi. Uning fikricha, xalq va til bir – biri bilan chambarchas bog‘liqdir, birini ikkinchisidan ajratgan holda tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Milliy uyg‘onish ma’rifatparvarlari adabiy tanqid, til sofligi badiiy adabiyot rivojining muhim shartlaridan ekanligi xususida shu tariqa munozara yuritdilar, haqiqatni yuzaga chiqarishga intildilar. Qaysi adib o‘z asarida boshqa tildan kirgan so‘zlarni ko‘p ishlatsa, u beayov tanqid qilindi. Hatto, o‘sha davrning eng peshqadam adiblari ham ayab o‘tirilmadi. Bu jihatdan qo‘qonlik Rasuliyning “Oyna” 1915- yil 9-sonida nashr etilgan “Shoir va milliy she’rlarimiz” nomli maqolasi ahamiyatga molikdir. Maqolada o‘zbek shoirlari she’rlarining ta’sirchan emasligi sababini “...muhtaram shoirlarimizni(ng) o‘z shevasida she’r yozmasdan she’rlarini(ng) yarmidan ko‘prog‘i usmonlicha va tatarchadan qo‘shilganligidandur...” – deya izohlaydi. Muallif fikrini isbotlash uchun Abdulla Avloniy ijodidan misol keltiradi:

Chujuqlar tarbiyatsiz, ilmdan begonayi sarxush,
Avomunnos g‘iybat hosili afsonayi sarxush.

Shu tariqa qator misollar bilan o‘z fikrini isbotlay olgan muallif “shuaromiz millat anglamaydurg‘on tilda yozmoqlaridan maqsad nimadur?” deya savol qo‘yadi. Rasuliy maqolani shoirlarga qarata: “....emdi yozadurg‘on she’ringizni o‘z

shevamizda yozingiz.... millat she'ringizni o'qib foydalansin" – degan fikr bilan yakunlaydi.

Mahmudxo'ja Behbudiy va Hoji Muinning tilga oid qarashlari bu boradagi munozaralar mohiyatini tushunishda, ayniqsa ahamiyatlidir. "Hoji Muin 1913-yilning oxirlariga kelib, adabiy tanqid bo'yicha maqolasini e'lon qildi. Shu paytdan e'tiboran "Oyna" jurnalida uning birorta ham forsiyda yozilgan maqolasi ko'zga chalinmaydi. Vaholanki, 1914 yilning bahor va yoz oylarida Mahmudho'ja Behbudiy Samarqandda bo'lmagan davrda "Oyna"ning taqdiri muharrir sifatida Hoji Muin ixtiyoriga berilgan edi. Hoji Muin ancha tadbirkor bo'lgani sababli ikki haftadayoq jurnalning texnik va tahririy jihatlari ancha yaxshilandi. Hoji Muin Mahmudxo'ja Behbudiyning istagidan bir oz chekinib, "Oyna"ni sof turkiy jurnalga aylantirib qo'ydi. Biroq jurnal muqovasidagi "turkiy – forsiy musulmon jurnali" iborasini o'zgartirmadi.

"Al-Isloh"da til xususida bo'lgan munozaralar bu muammo hayot-mamot masalasi o'laroq kun tartibiga qo'yilgan bir paytda, ayniqsa, muhim o'rin tutdi. Mutaxassislarga ayon, bu davrda Fitrat boshchiligidagi "Chig'atoy gurungi" bu masalani yanada kengroq miqyosda kun tartibiga qo'ygan edi. Buni Mo''minjon Muhammadjonov "Turmush urinishlari" nomli kitobida mana bu tarzda izohlagan: "Bu gurung"ning maqsadi: o'z tilimizni tuzatish, orasidan arabiy, forsiy tillarni imkoni boricha quvlab chiqarib ularning o'rnig'a o'z tilimizdan topib qo'yish, boyitish eski imloni tashlab maktab bolalarini yangi imloga o'rgatish edi..." [Mo'minjon Muhammadjonov, 1926: 315].

Haqiqatan ham, jamiyat faoliyatida til masalalari alohida o'rin tutgan. "Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir, bilasizmi?" – deya savol qo'ygan edi Fitrat "Tilimiz" maqolasida, va – "Turkcha!" deb javob bergani holda o'z fikrlariga dalillar keltiradi: "Shoirlik qilmoqchi emasman, so'zning to'g'risi shudir. Dunyoning eng boy tili turkchadir, eng baxtsiz tili xud turkchadir. Tillarning baxtsizligi sovet hukumati chog'inda bo'lg'an bir ishdir, bundan burun baxtli edilar deganlar tilimizni holini bilmasdan gapuralar…. Dunyoning eng boy tili bo'lg'an turkchamiz yolg'uz arabcha qumruqlar bilan emas, forsi(y)cha tepkilar bilan daxi ezilmishdir. Ko'zlarimizni to'rt ochib qarayliq, dunyoning eng buyuk hakimi bo'lg'an Ibn Sino turkdir. Ikkinchi Arastu atalg'an Forobiy turkdir." [Abdurauf Fitrat, 2009:124]. Millatning sha'ni – sharafi, or – nomusi hisoblangan til masalasi jadid ziyolilari ijodida eng dolzarb muammo o'laroq zikr etildi.

Milliy adabiyot va milliy til rivojini bir-biridan ayri tasavvur etish mahol. Bu jihatdan, adabiyot va til haqidagi munozaralar mushtarak bir hodisaning o'ziga xos talqini ekanini ta'kidlash kerak.

Adabiyotlar

1. Ibrohim Tohuriy. Matbuot va isloh. “Al-Isloh” jurnali 1915-yil, 5-6-sonlar.
2. Hoji Muin. Tanbehga tashakkur. “Oyna” jurnali 1915-yil, 7-son.
3. “Oyna” jurnali 1914-yil, 3-son.
4. “Oyna” jurnali 1914-yil, 2-son.
5. Rasuliy. Shoir va milliy she’rlarimiz. “Oyna” jurnali 1915-yil, 9-son.
6. “Sadoi Turkiston” gazetasi 1914- yil, 5-son.
7. Ashurali Zohiriy. Ona tili. “Sadoi Farg‘ona” gazetasi 1914- yil, 13-aprel.
8. Mo‘minjon Muhammadjonov. Turmish urinishlari (Bir mulla bolaning xotira daftari). T.: 1926, 315-bet.
9. Abdurauf Fitrat. Tilimiz. (Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi H.Boltaboyev). T.: Ma’naviyat, 2009, 124-betlar.